


OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI
BITIRUVCHILARINING

MEHNAT BOZORIDAGI NATIJALARI VA

BITIRUVCHILAR SIFATI INDEKSI

BSI



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIDAGI NATIJALARI VA BITIRUVCHILAR SIFATI INDEKSI

2024/2025 o'quv yili natijalari asosida axborot-tahliliy sharh

Ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik, daromad va bandlik shakllarining oliy ta'lim tashkilotlari
toifalari kesimidagi qiyosiy tahlili

Toshkent – 2026

Mundarija

I. KIRISH.....	4
1.1. Tahlilning dolzarbligi.....	4
1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi	5
1.3. Tadqiqot ob'yekti va qamrovi	6
II. INDEKSNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	7
2.1. Asosiy tushunchalar va qisqartmalar	7
2.2. Bitiruvchilar natijalarini baholashning xalqaro yondashuvlari.....	8
2.3. Ma'lumotlar manbalari va idoralararo axborot almashinuvi.....	11
2.4. Indeks tarkibi va hisoblash formulasi.....	12
2.5. Tahlil qamrovi va hisobga olinmaydigan toifalar	16
2.6. Natijalarni shakllantirish va rag'batlantirish tamoyillari.....	17
2.7. Bitiruvchilar sifati indeksi avtomatlashtirilgan raqamli platformasi	19
III. NATIJALARNING UMUMRESPUBLIKA TAHLILI	20
3.1. Bitiruvchilar kontingentining umumiy tavsifi	20
3.2. Bitiruvchilarning hududiy taqsimoti va hududlar bo'yicha natijalar	21
3.3. Bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi.....	23
3.4. Bitiruvchilar bandligining barqarorligi.....	25
3.5. Bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi.....	26
3.6. Respublika miqyosidagi asosiy tendensiyalar	28
IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TOIFALARI KESIMIDAGI QIYOSIY TAHLIL	29
4.1. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalarining umumiy tavsifi.....	29
4.2. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha indeksning o'rtacha qiymatlari	30
4.3. Rag'batlantiriluvchi oliy ta'lim tashkilotlarining toifalar bo'yicha taqsimoti	30
V. BITIRUVCHILAR SIFATI INDEKSI BO'YICHA RAG'BATLANTIRILADIGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI	32
5.1. Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlarining umumiy natijalari	32
VI. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI.....	35
6.1. Umumiy tavsif	35
6.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari	35
VII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI.....	37
7.1. Umumiy tavsif	37
7.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari	37
VIII. IJTIMOIIY-GUMANITAR TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI.....	39
8.1. Umumiy tavsif	39
8.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari	39
IX. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI	41
9.1. Umumiy tavsif	41

9.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari	41
X. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI NATIJALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	43
10.1. Asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilar	43
10.2. Past natijalar va ustuvor tahlil yo'nalishlari	43
XI. ASOSIY XULOSALAR VA AMALIY AHAMIYAT	45
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	47
ILOVALAR	50
1-ilova	50
2-ilova	55
3-ilova	59
4-ilova	61
5-ilova	67

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Oliy ta'lim tizimining natijadorligi faqat ta'lim jarayoni, ilmiy faoliyat yoki mavjud resurslar bilan emas, balki bitiruvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarini mehnat bozorida qo'llay olishi bilan ham belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, **bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi, bandligining barqarorligi, daromad darajasi va bandlik shakllari** ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga qay darajada muvofiqligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro amaliyotda ham ta'limdan mehnat faoliyatiga o'tish natijalarini muntazam kuzatib borish ta'lim siyosati samaradorligini baholashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta'limdan keyingi bandlik va daromad ko'rsatkichlarini ta'lim darajasi bilan iqtisodiy imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi asosiy mezonlar qatorida ko'rib chiqadi.¹

Yevropa bitiruvchilarini kuzatish tashabbusi doirasida esa bitiruvchilarning keyingi ta'lim yo'li, bandligi va kasbiy rivojlanishiga oid ma'lumotlarni tizimli yig'ish hamda mamlakatlar kesimida qiyoslashga alohida e'tibor qaratiladi.²

O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovining kengayishi, davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonining ortishi hamda mehnat bozorida malakaga bo'lgan talabning o'zgarib borishi ta'lim natijalarini bitiruvchilarning keyingi faoliyati bilan bog'liq holda baholash zaruratini kuchaytirmoqda.

Bunday sharoitda oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini faqat qabul ko'rsatkichlari, ta'lim resurslari yoki bitiruvchilarning umumiy soni asosida baholash yetarli emas.

Bitiruvchilar sifati indeksi (keyingi o'rinlarda – indeks) bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi, barqaror bandligi, o'rtacha oylik daromadi va bandlik shakllarini ma'muriy ma'lumotlar asosida o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv turli oliy ta'lim

¹ OECD. *Post-education labour market outcomes*.

URL: <https://www.oecd.org/en/topics/post-education-labour-market-outcomes.html> (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

² European Commission. *Relevant and High-Quality Higher Education: European Graduate Tracking Initiative*.

URL: <https://education.ec.europa.eu/education-levels/higher-education/relevant-and-high-quality-higher-education> (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi natijalarini yagona metodologik asosda qiyoslash, mavjud farqlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini dalillarga tayangan holda qabul qilish uchun tahliliy asos yaratadi.

Shu bilan birga, mazkur indeksni **oliy ta'lim sifatining barcha jihatlarini to'liq ifodalovchi yagona mezon** sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. U, avvalo, ta'lim natijadorligining bitiruvchilar bandligi va iqtisodiy faolligi bilan bog'liq qismini tavsiflaydi. Shu sababli indeks natijalarini oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, hududiy mehnat bozori sharoiti, bitiruvchilar kontingenti va boshqa ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda kompleks talqin qilish zarur.

1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi

Mazkur axborot-tahliliy sharhning asosiy maqsadi 2024/2025 o'quv yili bitiruvchilarining mehnat bozoridagi natijalarini kompleks baholash, indeksni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarni oliy ta'lim tashkilotlari va ularning toifalari kesimida qiyosiy tahlil qilish hamda ushbu indeks natijalarini ilmiy asosda talqin etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

bitiruvchilar kontingentining umumiy tarkibi va hududiy taqsimotini tahlil qilish;

bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi, barqaror bandligi, o'rtacha oylik daromadi va bandlik shakllari bo'yicha natijalarini baholash;

indeksni belgilangan metodologiya va hisoblash formulalari asosida shakllantirish;

oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini toifalar, hududlar va mulkchilik shakllari bo'yicha qiyoslash;

indeks natijalari asosida oliy ta'lim tashkilotlarini qiyosiy baholash, ular o'rtasidagi asosiy farqlarni va yuqori ko'rsatkichlarni aniqlash;

bitiruvchilarning mehnat bozoriga o'tish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni ilmiy jihatdan talqin qilish;

ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini kuchaytirish, bitiruvchilar bandligini yaxshilash va indeks metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatining mehnat bozori bilan bog'liq natijalarini baholash, indeks natijalarini tahliliy asoslash hamda ta'lim va bandlik sohasida dalillarga tayangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Tadqiqot ob'yekti va qamrovi

Tadqiqot ob'yektini 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlarini tamomlab, tegishli diplomni olgan bitiruvchilar tashkil etadi.

Tahlil doirasida **170 ta oliy ta'lim tashkilotining 249 432 nafar bitiruvchi** to'g'risidagi ma'lumotlar qamrab olingan. Mazkur kontingent davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, xorijiy universitetlar filiallari bitiruvchilaridan shakllangan.

Bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalari **ishga joylashish muddati, so'nggi olti oy davomidagi barqaror bandlik holati, rasmiy o'rtacha oylik daromad va bandlik shakli** bo'yicha o'rganildi. Natijalar respublika va hududlar, oliy ta'lim tashkilotlarining mulkchilik shakli hamda amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar va ijod (sport) toifalari kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologiyaga ko'ra, hisobot yilida **200 nafardan kam bitiruvchiga ega 51 ta** oliy ta'lim tashkilotining **3 614 nafar** bitiruvchisi bo'yicha natijalar alohida hisoblangan va asosiy reytingdan tashqarida tahlil qilingan. Bundan ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari mustasno.

Shunday qilib, indeksning yakuniy reytingiga **119 ta** oliy ta'lim tashkiloti kiritilgan.

Tadqiqot qamrovi bitiruvchilarning mehnat bozoridagi dastlabki natijalarini baholashga qaratilgan. Shu sababli olingan natijalar oliy ta'lim sifatining bitiruvchilar bandligi va iqtisodiy faolligi bilan bog'liq yo'nalishini ifodalaydi.

II. INDEKSNING METODOLOGIK ASOSLARI

2.1. Asosiy tushunchalar va qisqartmalar

Indeksni hisoblash va natijalarni yagona yondashuv asosida talqin qilish uchun quyidagi asosiy tushunchalar qabul qilingan.

Bitiruvchilar sifati indeksi (BSI) – oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoriga o'tish jarayonidagi dastlabki natijalarini ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik, rasmiy daromad va bandlik shakli asosida umumlashtirib ifodalovchi kompleks ko'rsatkich.

Bitiruvchi – tegishli hisobot davri uchun oliy ta'lim tashkilotining bakalavriat yoki magistratura ta'lim dasturini tamomlab, belgilangan tartibda diplom olgan shaxs.

Kuzatuv davri – bitiruvchining ta'limni yakunlaganidan keyingi mehnat faoliyati, bandlik holati va daromad ko'rsatkichlari o'rganiladigan 12 oylik vaqt oralig'i.

Band bitiruvchi – mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotgan, o'zini o'zi band qilgan, yuridik shaxsning ta'sischisi yoki hammuassisi bo'lgan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda rasmiy daromad keltiruvchi faoliyatni amalga oshirayotgan bitiruvchi.

Barqaror bandlik – bitiruvchining kuzatuv davrining so'nggi olti oyida uzluksiz band bo'lgan holati. Bunda mehnat faoliyatidagi uzilishning **o'n ish kunidan oshmasligi** shart qilib belgilangan.

Rasmiy daromad – bitiruvchining davlat axborot tizimlari orqali tasdiqlangan ish haqi va qonunchilikda belgilangan boshqa daromad manbalaridan olgan mablag'lari.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchi – yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoki nogironligi bo'lgan shaxs sifatida tegishli davlat axborot tizimida qayd etilgan bitiruvchi.

Oliy ta'lim tashkiloti toifasi – oliy ta'lim tashkilotlarini ularning asosiy ixtisoslashuvi va ta'lim yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar hamda ijod (sport) yo'nalishlariga guruhlash.

Indeks reytingi – indeks natijalari asosida oliy ta'lim tashkilotlarini tegishli toifa doirasida qiyosiy joylashtirish natijasi.

2.2. Bitiruvchilar natijalarini baholashning xalqaro yondashuvlari

Oliy ta'lim bitiruvchilari mamlakatning **inson kapitali, mehnat unumdorligi** va **innovatsion salohiyatini** rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ularning egallagan bilim va ko'nikmalarini mehnat faoliyatida samarali qo'llashi oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy natijaga aylanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bitiruvchilarning **bandligi, daromadi, tadbirkorlik faoliyati** va **kasbiy rivojlanishi** oliy ta'lim bilan iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi muvofiqlikni baholash uchun muhim axborot beradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Education at a Glance 2025 hisobotida ta'lim darajasi va sohasi bilan mehnat bozorida ishtirok, bandlik hamda daromad o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. OECD yondashuvida ushbu natijalarni yosh, gender, ta'lim sohasi va mamlakatning iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda talqin qilishga alohida e'tibor berilgan.³

OECD tahlili muayyan bitiruvchilar guruhini uzoq muddat kuzatishdan ko'ra, ta'lim va mehnat bozori natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni mamlakatlar kesimida qiyoslashga xizmat qiladi.

Yevropa Ittifoqi Kengashining bitiruvchilarni kuzatishga oid tavsiyasida bitiruvchilar haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi, sifati va qiyoslanuvchanligini oshirish nazarda tutilgan.

Tavsiyada ta'lim, soliq, aholi va ijtimoiy ta'minot bazalaridagi shaxssizlantirilgan ma'muriy ma'lumotlarni yig'ish, bitiruvchilarni vaqt davomida kuzatuvchi davriy so'rovlarni o'tkazish va turli manbalardagi ma'lumotlarni o'zaro bog'lash ko'rsatilgan.⁴

Ushbu yondashuv bitiruvchilarning mehnat bozoriga o'tishi, keyingi ta'lim yo'li, egallagan malakasining ishga muvofiqligi va kasbiy rivojlanishi to'g'risida yaxlit ma'lumot shakllantirishga qaratilgan. Olingan natijalar ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ko'nikmalarga bo'lgan talabni aniqlash va ta'lim

³ OECD. *Education at a Glance 2025: How Does Educational Attainment Affect Participation in the Labour Market?*
URL: https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025_1c0d9c79-en/full-report/how-does-educational-attainment-affect-participation-in-the-labour-market_ae451464.html

(ko'rilgan sana: 04.08.2026)

⁴ Council of the European Union. *Council Recommendation of 20 November 2017 on Tracking Graduates*.
URL: <https://education.ec.europa.eu/document/council-recommendation-of-20-november-2017-on-tracking-graduates> (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

siyosatini dalillar asosida shakllantirishda qo'llaniladi. Bunda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablariga rioya etilishi shart.

Buyuk Britaniyada Jisc tarkibidagi Oliy ta'lim statistika agentligi (Higher Education Statistics Agency – HESA) tomonidan o'tkaziladigan Graduate Outcomes tadqiqoti bitiruvchilarning ta'limni tamomlaganidan taxminan **15 oy keyingi faoliyati** va qarashlarini o'rganadi.⁵

Tadqiqotda bitiruvchilarning bandligi, keyingi ta'limdagi ishtiroki va boshqa faoliyat turlari bilan birga, bajarayotgan ishining ular uchun ahamiyati, ta'limda olgan bilimlaridan foydalanishi hamda joriy faoliyatining kelgusi rejalariga muvofiqligi ham baholanadi. 15 oylik davr bitiruvchilarning faqat dastlabki ishga joylashish holatini emas, balki mehnat bozori yoki keyingi ta'limda muayyan vaqtdan keyin shakllangan holatini o'rganish imkonini beradi.

Janubiy Koreyada Ta'lim vazirligi va Koreya ta'limni rivojlantirish instituti (Korean Educational Development Institute – KEDI) tomonidan oliy ta'lim bitiruvchilarining bandligiga oid statistik kuzatuvlar har yili o'tkaziladi. Ularda bitiruvchilarning bandligi va keyingi ta'limdagi ishtiroki bilan birga, ishga joylashishga tayyorgarlik davri, daromad, ish beruvchi turi va iqtisodiyot tarmog'iga oid ma'lumotlar ham umumlashtiriladi.⁶

Ushbu ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotlari va ta'lim sohalari bo'yicha natijalarni qiyoslash, ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini baholash hamda bitiruvchilar bandligiga ko'maklashish choralarini takomillashtirish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Yaponiyada Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligi bilan birgalikda universitetlar, texnologiya kollejlari va kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashish holatini belgilangan sanalarda o'rganadi.⁷

Mazkur kuzatuv barcha bitiruvchilarni to'liq qamrab olmaydi. U joylashuvi va mulkchilik shakli hisobga olingan holda tanlab olingan ta'lim

⁵ Higher Education Statistics Agency (HESA). *Definitions: Graduate Outcomes*.

URL: <https://www.hesa.ac.uk/support/definitions/graduates> (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

⁶ Korean Educational Development Institute (KEDI). 2024년도 고등교육기관 졸업자 취업통계 조사 결과 발표. URL: https://www.kedi.re.kr/khome/main/announce/selectBroadAnnounceForm.do?article_sq_no=36242&board_sq_no=3&selectTp=0 (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

⁷ Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology of Japan. 令和7年度大学等卒業者の就職状況調査 (4月1日現在) .

URL: https://www.mext.go.jp/b_menu/toukei/chousa01/naitei/kekka/k_detail/1422624_00027.htm (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

tashkilotlari hamda bitiruvchilar asosida o'tkaziladi. Natijalar ish qidirayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim tashkilotlari bilan bandlik xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishda qo'llaniladi.

Xitoyda bitiruvchilar bandligiga ko'maklashish Milliy 24/365 bitiruvchilar bandligi xizmatlari platformasi (National 24/365 Graduate Employment Service Platform) va tegishli axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi.⁸

Platformada bo'sh ish o'rinlarini izlash va tavsiya qilish, rezyume joylashtirish, onlayn mehnat yarmarkalarida ishtirok etish, ish beruvchilar bilan onlayn kelishuvlarni rasmiylashtirish, bitiruvchilarning bandlik yo'nalishini qayd etish, ma'lumotlarni tekshirish va bandlik holatini dinamik kuzatish imkoniyatlari birlashtirilgan. Shu bois platforma faqat monitoring vositasi emas, balki bitiruvchilar va ish beruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi axborot tizimi ham hisoblanadi.

Xitoyda bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasida kuzatuv so'rovlari ham o'tkaziladi. Ularning natijalari ta'lim dasturlari va mutaxassisliklar tarkibini qayta ko'rib chiqish, ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda bitiruvchilar bandligiga ko'maklashish xizmatlarini rivojlantirishda qo'llaniladi.⁹

Ko'rib chiqilgan xalqaro tajribalar bitiruvchilar natijalarini baholash tizimi faqat reyting tuzish vositasi bo'lib qolmasligi kerakligini ko'rsatadi. U ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kasbiy yo'naltirish xizmatlarini rivojlantirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, kadrlarga bo'lgan istiqbolli ehtiyojni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bitiruvchilarni belgilashga ham xizmat qilishi lozim.

Ushbu tajribalardan kelib chiqib, bitiruvchilar natijalarini ishonchli baholash uchun ma'muriy ma'lumotlar bilan bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi so'rovlarni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda bandlik darajasi bilan cheklanmasdan, daromad, keyingi ta'lim, ishning malakaga muvofiqligi, kasbiy o'sish va bitiruvchining o'z faoliyatiga bergan bahosi ham hisobga olinishi zarur.

⁸ Ministry of Education of the People's Republic of China. *Notice on Promoting the Use of the National 24365 Graduate Employment Service Platform*.

URL: https://www.moe.gov.cn/srcsite/A15/s3265/202204/t20220406_614117.html (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

⁹ Ministry of Education of the People's Republic of China. *Notice on Conducting a Follow-up Survey of the Employment Status of College Graduates*.

URL: https://www.moe.gov.cn/srcsite/A15/s3265/202009/t20200927_491672.html (ko'rilgan sana: 04.08.2026).

O'zbekistonda joriy etilayotgan indeks bitiruvchilarning mehnat bozorida natijalarini idoralararo axborot almashinuvi asosida baholashga qaratilgan. Bandlik, daromad va tadbirkorlikka oid rasmiy ma'lumotlarni birlashtirish oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini nisbiy ko'rsatkichlar asosida qiyoslash imkonini beradi.

2.3. Ma'lumotlar manbalari va idoralararo axborot almashinuvi

Indeksni hisoblash uchun zarur ma'lumotlar **«BSI avtomatlashtirilgan raqamli platformasi»** orqali idoralararo elektron axborot almashinuvi asosida shakllantiriladi.

Indeks oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozorida natijalarini rasmiy ma'lumotlar asosida kompleks baholashga xizmat qiluvchi mustaqil tahliliy vosita hisoblanadi.

Bitiruvchilarning boshlang'ich kontingenti **«HEMIS» axborot tizimi** ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Unda bitiruvchining ta'lim olgan oliy ta'lim tashkilotlar, mutaxassisligi va ta'lim yo'nalishi, diplom olgan sanasi va shaxsini aniqlash uchun zarur identifikatsiya ma'lumotlari qayd etiladi.

Bitiruvchilar holatini aniqlashda **Soliq qo'mitasi** (my.soliq.uz), **Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi** (my.mehnat.uz), **Adliya vazirligi** (davlat xizmatlari axborot tizimlari va «FHDYOning yagona elektron arxivi») va **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** («UzASBO» dasturiy majmuasi) axborot tizimlari ma'lumotlari o'rganiladi.

Ushbu manbalar orqali bitiruvchilarning **rasmiy bandligi, ish joyi, lavozimi, mehnat staji, daromadi, yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatidagi faoliyati** hamda **o'zini o'zi band qilganlik holati** aniqlanadi.

Indeks natijalarini xolis shakllantirish maqsadida mehnat faoliyatida ishtirok etmasligining ob'yektiv sabablari mavjud bo'lgan bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar ham hisobga olinadi.

Jumladan, tegishli davlat idoralari **mudofaa vazirligi harbiy xizmatni o'tayotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, bola parvarishi ta'tilida bo'lgan, xorijga chiqqan va vafot etgan bitiruvchilar** to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mazkur ma'lumotlar indeksni hisoblashda **bitiruvchining band emaslik holatini uning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv sabablardan ajratish** imkonini beradi.

Turli axborot tizimlaridagi ma'lumotlarni bir bitiruvchi kesimida o'zaro muvofiqlashtirishda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalaniladi.

Tahliliy natijalar esa shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor etmagan holda, **umumlashtirilgan** va **shaxssizlantirilgan ko'rinishda** oliy ta'lim tashkilotlari va ularning toifalari kesimida shakllantiriladi.

Natijalarni baholashda hisobot yilini (1 iyuldan 30 iyungacha) qamrab oluvchi ma'lumotlar asos qilib olinadi. Turli davlat axborot tizimlarini integratsiya qilish **so'rovnoma o'tkazish orqali bitiruvchilar natijalarini shakllantirishga bog'liqlikni kamaytiradi**, va **ularning mehnat faoliyatini shaffof baholash** imkonini beradi.

Indeks natijalarining ishonchliligi axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning to'liqligi, o'z vaqtida yangilanishi va idoralararo ma'lumot almashinuvining barqaror ishlashiga bevosita bog'liq.

2.4. Indeks tarkibi va hisoblash formulasi

Indeks bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalarini turli jihatlardan ifodalovchi **4 ta** indikator asosida shakllantiriladi.

Bular **ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik darajasi, o'rtacha oylik daromad** va **bandlik toifasi** ko'rsatkichlaridan iborat. Mazkur indikatorlarni birgalikda qo'llash bitiruvchining faqat ish bilan ta'minlanganini emas, balki ishga qancha vaqtda joylashgani, bandligining barqarorligi, mehnat faoliyatidan olayotgan daromadi va bandlik shaklini ham hisobga olish imkonini beradi.

Indeksning yakuniy qiymati to'rtta indikator qiymatining o'rtacha arifmetik miqdori sifatida quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$BSI = (IJT + BBD + O'OD + BT) / 4$$

bunda:

BSI – Bitiruvchilar sifati indeksi;

IJT – ishga joylashish tezligi;

BBD – barqaror bandlik darajasi;

O'OD – o'rtacha oylik daromad;

BT – bandlik toifasi.

Formulada to'rtta indikator teng ahamiyatga ega bo'lib, har birining yakuniy indeksdagi ulushi **25 foizni** tashkil etadi.

Bunday yondashuv oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini bitta ko'rsatkich asosida emas, balki bitiruvchilarning mehnat bozoridagi holatini kompleks ifodalovchi bir nechta o'zaro bog'liq mezonlar asosida baholashga xizmat qiladi.

Ishga joylashish tezligi (IJT) bitiruvchining diplom olgan sanasidan boshlab ishga joylashishigacha bo'lgan muddatni ifodalaydi. Bu indikator quyidagi formula asosida 0–100 ballik shkalada shakllantiriladi:

$$IJT = \frac{4(B_1 + BIH_{reyst}) + 3B_2 + 2B_3 + B_4}{4(BS - HB)} * 100,$$

bunda:

B₁ – birinchi oyda (shu jumladan talabalik davridan) band bo'lganlar;

B₂ – birinchi oydan uchinchi oygacha band bo'lganlar;

B₃ – uchinchi oydan oltinchi oygacha band bo'lganlar;

B₄ – oltinchi oydan o'n ikkinchi oygacha band bo'lgan va o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida hisobga olingan hamda ikki yoshga to'lmagan bolani parvarish qilayotgan bitiruvchilar;

BIH_{reyst} – ijtimoiy himoyaga muhtoj band bitiruvchilar;

BS – bitiruvchilar umumiy soni;

HB – hisobga olinmaydigan bitiruvchilar soni.

Shu tariqa hisobot yilining birinchi oyida (shu jumladan talabalik davridan) band bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchilar uchun – **4 oshiruvchi koeffitsiyent**, keyingi davrlar uchun **3** va **2 oshiruvchi koeffitsiyentlar** qo'llaniladi.

Mazkur indikator bitiruvchilarning ta'limdan mehnat faoliyatiga o'tish tezligini baholash imkonini beradi.

Barqaror bandlik darajasi (BBD) hisobot yilining so'nggi olti oyi davomida uzluksiz band bo'lgan bitiruvchilar ulushi asosida aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$BBD = \frac{IB_{\text{bar}}}{BS-HB} * 100$$

bunda:

IB_{bar} – hisobot yilining so‘nggi olti oyida uzluksiz band bo‘lgan bitiruvchilar;

Bunda mazkur davrda bandlikdagi uzilishning **10 ish kunidan oshmasligiga** yo‘l qo‘yiladi. Ushbu indikator vaqtinchalik ishga joylashish holatlaridan farqli ravishda, bitiruvchining mehnat bozorida nisbatan barqaror o‘rin egallaganini baholaydi.

O‘rtacha oylik daromad (O‘OD) indikatorini hisoblashda har bir bitiruvchining rasmiy o‘rtacha oylik daromadi u yashayotgan hudud bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi e‘lon qiladigan hisoblangan nominal ish haqiga nisbatan baholanadi.

Mazkur indikatorni hisoblashda avval **har bir bitiruvchi uchun daromad koeffitsiyenti** quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_i = ODi / Ho_j,$$

bunda:

K_i – har bir bitiruvchi uchun daromad koeffitsiyenti;

OD_i – bitiruvchining rasmiy o‘rtacha oylik daromadi;

HO_j – bitiruvchining yashash hududi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Shundan so‘ng oliy ta‘lim tashkiloti bo‘yicha o‘rtacha oylik daromad indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$O'rOD_i = \Sigma k_i / BB$$

bunda:

O‘rOD_i – o‘rtacha oylik daromad indeksi

Σk_i – umumiy bitiruvchilar daromad koeffitsiyenti yig‘indisi;

BB – band bo‘lgan bitiruvchilar soni.

Shunday qilib, olingan natijalar quyidagi formula orqali hisob-kitob qilinib, O‘rtacha oylik daromad (O‘OD) indikatorini 0–100 shkalaga keltiriladi:

$$O'OD = O'rOD_i / O'rOD_{\text{maks}} \times 100,$$

bunda:

O'rODi – o'rtacha oylik daromad indeksi;

O'rOD_{maks} – tegishli toifa doirasida eng yuqori natijaga ega oliy ta'lim tashkiloti natijasi.

Hududiy ish haqi darajasining hisobga olinishi turli iqtisodiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan bitiruvchilar natijalarini nisbatan xolis qiyoslash imkonini beradi. Indikatorni hisoblashda faqat rasmiy daromadga ega bitiruvchilar inobatga olinadi.

Bandlik toifasi (BT) bitiruvchining mehnat bozoridagi ishtirok shaklini oshiruvchi koeffitsiyentlar asosida hisobga oladi.

Yuridik shaxsning ta'sischisi yoki hammuassisi bo'lgan, keyingi ta'lim bosqichida o'qishni davom ettirayotgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchilar uchun **2 koeffitsiyent**, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa **1,5 koeffitsiyent** qo'llaniladi.

Bunda bir nechta maqom mavjud bo'lsa, eng yuqori koeffitsiyent qo'llanadi. Mazkur indikator quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$BT = \frac{2*(BB_{y.sh.}+BB_t+BB_x+BIH_r)+1.5*BB_{yTT}+BB_{FSh}+BB_p}{2*(BS-HB)} *100,$$

bunda:

BS – bitiruvchilar soni;

HB – hisobga olinmaydigan bitiruvchilar soni;

BB_{y.sh} va **BB_{yTT}** – yuridik shaxsni tashkil etgan yoki muassisi (ta'sischisi) bo'lgan va yuridik shaxs tashkilotida ishlayotgan bitiruvchilar soni;

BB_t – ta'limni keyingi bosqichda davom ettirayotgan (falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilar bundan mustasno) bitiruvchilar soni;

BB_x – hisobot yili davomida xorijga chiqqan hamda kamida 90 kalendar kun mobaynida xorijda bo'lgan va hisobot yili yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytib kirmagan bitiruvchilar soni;

BIH_r – Yagona ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchilar soni;

BB_{FSh} – fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida band bo'lgan bitiruvchilar soni;

BB_p – ikki yoshga to'lmagan bolani parvarish qilayotgan bitiruvchilar soni.

Mazkur indikator yollanma bandlik bilan bir qatorda tadbirkorlik, yangi ish o'rinlarini yaratish va ta'limni davom ettirish kabi faoliyat shakllarini ham baholash imkonini beradi.

Har bir indikator yakuniy indeksga qo'shilishidan oldin yagona 0–100 ballik shkalaga keltiriladi.

Shunday qilib, Indeks bitiruvchilar natijalarini bitta ko'rsatkich bilan cheklamasdan, **ishga joylashish tezligi, bandlik barqarorligi, daromad darajasi va bandlik shaklini o'zaro bog'liq holda** baholaydi. Bu bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijadorligini kompleks va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

2.5. Tahlil qamrovi va hisobga olinmaydigan toifalar

Mazkur axborot-tahliliy sharh **2024/2025 o'quv yilida bakalavriat va magistratura** ta'lim dasturlarini tamomlagan **249 432 nafar bitiruvchi** to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Tahlilga davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda xorijiy universitetlar filiallari bitiruvchilari kiritilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi va ularda amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida indeks natijalari **amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar hamda ijod (sport) toifalari** bo'yicha shakllantiriladi.

Bunday yondashuv faoliyat yo'nalishi, bitiruvchilar kontingenti va mehnat bozoriga chiqish xususiyatlari o'zaro yaqin bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarini bir toifa doirasida qiyoslash imkonini beradi.

Hisobot yilida **200 nafardan kam** bitiruvchiga ega bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarining natijalari alohida hisoblanadi va ular **indeksning asosiy yakuniy reytingida ishtirok etmaydi**.

Mazkur talab ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlariga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu san'at, madaniyat va sport sohalarida bitiruvchilar kontingentining tabiiy ravishda kam shakllanishi bilan izohlanadi.

200 nafardan kam bitiruvchiga ega oliy ta'lim tashkilotlari uchun ham indikatorlar va yakuniy indeks qiymati hisoblanadi. Biroq kichik kontingent ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan keskin tebranishlarni cheklash

maqsadida ularning natijalari asosiy reytingdan tashqarida alohida talqin qilinadi.

Mazkur toifaga kiruvchi **51 ta oliy ta'lim tashkiloti ro'yxati va ularning hisoblangan natijalari 1-ildovada** keltiriladi.

Belgilangan ishtirok shartlarini hisobga olgan holda, indeksning 2024/2025 o'quv yili bo'yicha yakuniy reytingida **119 ta oliy ta'lim tashkiloti** ishtirok etadi.

Indeksni hisoblashda mehnat bozoridagi holatini umumiy tartibda baholash imkoni bo'lmagan quyidagi bitiruvchilar hisoblash tarkibiga kiritilmaydi:

xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan bitiruvchilar;

harbiy xizmatni o'tayotgan bitiruvchilar;

ozodlikdan mahrum etilgan bitiruvchilar;

vafot etgan bitiruvchilar.

Shuningdek, **oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim tashkilotlari bo'yicha indeks shakllantirilmaydi**. Mazkur cheklovlar bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalarini oliy ta'lim tashkiloti faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lmagan tashqi holatlar ta'siridan ajratgan holda baholashga qaratilgan.

Tahlil qamrovi va istisnolarning aniq belgilanishi Indeks natijalarining qiyoslanuvchanligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, yakuniy natijalarni talqin qilishda oliy ta'lim tashkilotining toifasi, bitiruvchilar soni, hududiy mehnat bozori xususiyatlari va tayyorlanayotgan mutaxassisliklar tarkibini ham hisobga olish zarur.

2.6. Natijalarni shakllantirish va rag'batlantirish tamoyillari

Indeks natijalari har bir toifa doirasida alohida shakllantirilganligi sababli amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar va ijod (sport) toifalaridagi oliy ta'lim tashkilotlari natijalari, avvalo, o'zi mansub bo'lgan toifa ishtirokchilari bilan qiyoslanadi.

Natijalarni jamoatchilik uchun tushunarli va qiyoslashga qulay shaklda taqdim etish maqsadida har bir toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari indeks qiymati bo'yicha uchta natijaviy guruhga ajratiladi:

«Noyashil»№ guruh – eng yuqori natija qayd etgan oliy ta'lim tashkilotlarining 20 foizi;

«sariq» guruh – keyingi 40 foizi;

«qizil» guruh – qolgan 40 foizi.

Mazkur guruhlash oliy ta'lim tashkilotlarining tegishli toifadagi nisbiy o'rnini ko'rsatadi.

«Yashil» guruhga kirish bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalari bo'yicha toifa doirasida yuqori ko'rsatkich qayd etilganini anglatadi. «Sariq» guruh barqaror, ammo yaxshilash imkoniyatlari mavjud natijalarni, «qizil» guruh esa alohida tahlil va maqsadli choralarni talab etadigan nisbatan past ko'rsatkichlarni ifodalaydi.

Indeks yakunlari bo'yicha **eng yuqori natijaga erishgan 20 ta oliy ta'lim tashkiloti rag'batlantirish uchun tanlanadi.**

Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni barcha toifalarga bir xil miqdorda emas, balki har bir toifada indeksning yakuniy reytingida ishtirok etayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Har bir toifaga ajratiladigan rag'batlantirish o'rinlari quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$C = \frac{C_{\text{toifa}}}{C_{\text{OTT}}} \times 20,$$

bunda:

C – tegishli toifa bo'yicha rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni;

C_{toifa} – mazkur toifada indeksning yakuniy reytingida ishtirok etayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni;

C_{OTT} – indeksning yakuniy reytingida ishtirok etayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni;

20 – rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni.

Mutanosib taqsimlash tamoyili ishtirokchilar soni ko'p va kam bo'lgan toifalar o'rtasida rag'batlantirish o'rinlarini adolatli taqsimlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida yakuniy indeks ballari teng bo'lgan hollarda, **o'rtacha oylik daromad indikatori yuqori bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlariga ustunlik beriladi.** Bu bitiruvchilarning mehnat bozoridagi iqtisodiy natijasini teng ballarni ajratishda qo'shimcha mezon sifatida qo'llash imkonini beradi.

2.7. Bitiruvchilar sifati indeksi avtomatlashtirilgan raqamli platformasi

Bitiruvchilar sifati indeksi natijalarini shakllantirish, tizimlashtirish va foydalanuvchilarga interaktiv shaklda taqdim etishga qaratilgan **Bitiruvchilar sifati indeksi avtomatlashtirilgan raqamli platformasi** (bsi.nqaae.uz) ishga tushirildi.

Mazkur platforma bitiruvchilarining mehnat bozoridagi natijalarini yagona axborot muhitida aks ettirish hamda indeks natijalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Platformaning funksional imkoniyatlari indeks natijalarini **oliy ta'lim tashkilotlari, hududlar, toifalar va tashkiliy-huquqiy shakllar kesimida** qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi.

Foydalanuvchi alohida oliy ta'lim tashkilotini tanlab, uning indeks bali, o'rtacha ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik darajasi, o'rtacha ish haqi va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rishi mumkin.

Shuningdek, hududlar bo'yicha natijalar interaktiv xarita orqali taqdim etilib, muayyan ko'rsatkich bo'yicha yuqori va nisbatan past natija qayd etgan hududlarni vizual qiyoslash imkoniyati yaratilgan.

Shu bilan birga, platformaning ochiq formatda taqdim etilishi indeks natijalarining **shaffofligi va jamoatchilik uchun tushunarligini oshiradi**.

III. NATIJALARNING UMUMRESPUBLIKA TAHLILI

3.1. Bitiruvchilar kontingentining umumiy tavsifi

2024/2025 o'quv yili yakunlari bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarini **249 432 nafar talaba** tamomlagan. Bitiruvchilar kontingentining mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimoti oliy ta'lim tizimida davlat oliy ta'lim tashkilotlarining miqdoriy jihatdan ustun mavqega ega ekanini ko'rsatadi.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarini **211 587 nafar bitiruvchi** tamomlagan bo'lib, bu umumiy bitiruvchilar sonining **84,8 foizini** tashkil etadi. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga **31 659 nafar** yoki **12,7 foiz**, xorijiy universitetlar filiallari hissasiga esa **6 186 nafar** yoki **2,5 foiz** bitiruvchi to'g'ri keladi.

Bitiruvchilar soni bo'yicha davlat oliy ta'lim tashkilotlari yaqqol ustunlik qilgan bo'lsa-da, mulkchilik shakllari kesimida indeksning o'rtacha qiymatlari o'rtasidagi farq nisbatan cheklangan.


Eng yuqori o'rtacha indeks qiymati xorijiy universitetlar filiallarida 58,7 ballni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich **nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida 55,1 ball**, **davlat oliy ta'lim tashkilotlarida** esa **53,0 ball** darajasida qayd etilgan.

Ushbu natijalar bitiruvchilar kontingentining miqdori bilan indeksning o'rtacha qiymati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi.

Xususan, xorijiy universitetlar filiallari umumiy bitiruvchilar sonida eng kichik ulushga ega bo'lishiga qaramay, indeksning o'rtacha qiymati bo'yicha yuqori natijani qayd etgan.

Biroq mazkur farqni faqat mulkchilik shaklining ta'siri bilan izohlash maqsadga muvofiq emas. Oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, ta'lim dasturlari tarkibi, joylashgan hududi, bitiruvchilar tayyorlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozoridagi talab kabi omillar ham yakuniy natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli mulkchilik shakllari bo'yicha natijalar keyingi bo'limlarda hududiy va indikatorlar kesimidagi tahlillar bilan to'ldiriladi.



1-rasm. Bitiruvchilarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimoti va indeksning o'rtacha qiymati, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


3.2. Bitiruvchilarning hududiy taqsimoti va hududlar bo'yicha natijalar

Bitiruvchilarning hududlar kesimidagi taqsimoti respublika bo'yicha bir tekis shakllanmagan. Eng katta kontingent **Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 80 742 nafar bitiruvchini** tashkil etadi. Bu respublika jami bitiruvchilarining qariyb **1/3 qismiga** teng.

Bitiruvchilar soni bo'yicha keyingi yuqori ko'rsatkichlar **Samarqand viloyatida 21 732 nafar, Farg'ona viloyatida 20 132 nafar** va **Namangan viloyatida 16 044 nafar** darajasida qayd etilgan.

Mazkur taqsimot yirik oliy ta'lim tashkilotlari va talabalar kontingenti asosan poytaxt hamda aholi soni nisbatan yuqori bo'lgan hududlarda jamlanganini ko'rsatadi.

Hududlar bo'yicha bitiruvchilar soni



2-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining hududlar bo'yicha taqsimoti, 2024/2025 o'quv yili

Hududlardagi bitiruvchilar soni bilan indeksning o'rtacha qiymati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik kuzatilmaydi. Bitiruvchilar soni eng ko'p bo'lgan **Toshkent shahrida** indeksning o'rtacha qiymati **60 ballni** tashkil etgan. Eng yuqori o'rtacha natija esa **Navoiy viloyatida 62,5 ball** darajasida qayd etilgan.

Keyingi yuqori natijalar **Surxondaryo viloyatida 62,1 ball** va **Toshkent shahrida 60 ballni** tashkil etgan. **Buxoro viloyatida 59,1 ball**, **Qashqadaryo viloyatida 58,6 ball** va **Namangan viloyatida 58,4 ball** qayd etilgan. Eng past o'rtacha indeks qiymati **Qoraqalpog'iston Respublikasida 49,5 ballni** tashkil etgan.

Qayd etilgan natijalar bitiruvchilar kontingentining kattaligi hududdagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks bo'yicha yuqori natija qayd etishini avtomatik ravishda ta'minlamasligini ko'rsatadi. Hududiy o'rtacha qiymatlarga oliy ta'lim tashkilotlarining soni va ixtisoslashuvi, bitiruvchilar tayyorlangan ta'lim yo'nalishlari, mahalliy mehnat bozorining tarkibi, iqtisodiy faollik hamda ish haqi darajasi ta'sir ko'rsatishi mumkin.



3-rasm. Hududlar bo'yicha indeks qiymatlari, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

3.3. Bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi

Ishga joylashish tezligi bitiruvchining diplom olgan sanasidan boshlab ishga joylashishigacha bo'lgan muddatni ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich bitiruvchilarning ta'limdan mehnat bozoriga o'tish jarayonini baholash imkonini beradi.

Respublika bo'yicha bitiruvchilarning ishga joylashishi uchun ketgan o'rtacha muddat **2 oy 27 kunni** tashkil etgan. Mulkchilik shakllari kesimida eng qisqa muddat nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida qayd etilib, **2 oy 10 kunni** tashkil qilgan. Davlat oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari o'rtacha **2 oy 29 kunda**, xorijiy universitetlar filiallari bitiruvchilari esa **3 oy 20 kunda** ishga joylashgan.

Hududlar bo'yicha bitiruvchilarning o'rtacha ishga joylashish tezligi



4-rasm. Bitiruvchilarning hududlar bo'yicha o'rtacha ishga joylashish muddati, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Oliy ta'lim tashkilotlari kesimida eng qisqa ishga joylashish muddati **Qarshi xalqaro universitetida 1 oy 4 kun**, **Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazida 1 oy 11 kun**, **Nordik xalqaro universitetida 1 oy 14 kun**, **Andijon davlat universitetida 1 oy 17 kun** va **Qarshi davlat universitetida 1 oy 20 kunni** tashkil etgan. **Toshkent shahridagi Puchon universiteti** bitiruvchilari o'rtacha **2 oy 16 kunda**, **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti** bitiruvchilari esa **2 oy 17 kunda** ishga joylashgan.

Uzoq muddatlar **O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filialida 6 oy**, **Toshkent farmatsevtika institutida 5 oy 10 kun**, **Samarqand davlat tibbiyot universitetida 4 oy 7 kun** hamda **Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati institutida 3 oy 8 kunni** tashkil etgan.


Oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi mazkur farqlar ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlari, ayrim sohalardagi internatura jarayonlari, ishga qabul qilish davriyligi va hududiy mehnat bozori sharoitlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3.4. Bitiruvchilar bandligining barqarorligi

Barqaror bandlik indikatori hisobot yilining so'nggi olti oyi davomida uzluksiz band bo'lgan bitiruvchilar ulushini ifodalaydi. Bunda bandlikdagi uzilishning 10 ish kunidan oshmasligiga yo'l qo'yiladi. Mazkur ko'rsatkich bitiruvchining mehnat bozoriga kirishidan tashqari, ish joyida muayyan muddat davomida saqlanib qolishini ham baholash imkonini beradi.

Respublika bo'yicha barqaror band bitiruvchilarning o'rtacha ulushi **42,9 foizni** tashkil etgan. Mulkchilik shakllari kesimida eng yuqori natija xorijiy universitetlar filiallarida qayd etilib, **49,8 foizga** teng bo'lgan. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida mazkur ko'rsatkich **46,7 foizni**, davlat oliy ta'lim tashkilotlarida esa **42,1 foizni** tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha barqaror band bitiruvchilar ulushi, %



5-rasm. Hududlar bo'yicha barqaror band bitiruvchilar ulushi, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida barqaror bandlikning yuqori ko'rsatkichlari **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 68,3 foiz**, **Toshkent shahridagi Inha universitetida**

68,1 foiz, Olmaliq davlat texnika instituti 61,2 foiz hamda I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filialida 59 foizni tashkil etgan.

Ijod (sport) toifasida esa **O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali 85,7 foiz** bilan tahlildagi eng yuqori natijani qayd etgan. **O'zbekiston davlat konservatoriyasida barqaror band bitiruvchilar ulushi 75,5 foizni** tashkil etgan.

Natijalar bitiruvchilarning mehnat bozoriga dastlabki kirishi bilan unda barqaror o'rin egallashi o'rtasida farq mavjudligini ko'rsatadi.


Respublika bo'yicha ko'rsatkichning **42,9 foiz** darajasida shakllangani bitiruvchilarni kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlarida qo'llab-quvvatlash, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini muntazam baholash muhimligini anglatadi.

3.5. Bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi

O'rtacha oylik daromad bitiruvchilarning mehnat bozorida iqtisodiy natijalarini baholashga xizmat qiladi. Mazkur ko'rsatkichni hisoblashda rasmiy daromadi davlat axborot tizimlarida qayd etilgan bitiruvchilarning ma'lumotlari inobatga olingan.

Respublika bo'yicha bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi **4,9 mln so'mni** tashkil etgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich **Toshkent shahrida** qayd etilib, **6,6 mln so'mga** teng bo'lgan. Viloyatlar orasida yuqori natijalar **Navoiy viloyatida 5,0 mln so'm** va **Toshkent viloyatida 5,0 mln so'm** miqdorida shakllangan.

Hududlar bo'yicha bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi, mln so'm



6-rasm. Hududlar bo'yicha bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi, 2024/2025 o'quv yili (mln so'm)

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida bitiruvchilarning eng yuqori o'rtacha oylik daromadi **Toshkent shahridagi Inha universitetida 12,6 mln so'mni** tashkil etgan. Keyingi yuqori ko'rsatkichlar **Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 9,4 mln so'm** va **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 8,1 mln so'm** miqdorida qayd etilgan.

Ijtimoiy-gumanitar toifada **Toshkent xalqaro Vestminster universiteti 12,5 mln so'm** bilan yetakchilik qilgan. **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti** bitiruvchilarining o'rtacha oylik daromadi **10,6 mln so'mni**, **Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida esa 10,3 mln so'mni** tashkil etgan.

Ushbu bo'limda bitiruvchilarning **mutlaq o'rtacha oylik daromadi** keltirilgan. Indeksni hisoblashda esa har bir bitiruvchining daromadi u yashayotgan hudud bo'yicha hisoblangan nominal o'rtacha ish haqiga nisbatan baholanadi. Bunday yondashuv hududlar o'rtasidagi ish haqi tafovutlarining natijalarga ta'sirini muayyan darajada hisobga olish imkonini beradi.

3.6. Respublika miqyosidagi asosiy tendensiyalar

Respublika tahlili 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim tizimida **249 432 nafar bitiruvchi** tayyorlanganini ko'rsatadi. Ularning asosiy qismi davlat oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelsa-da, indeksning o'rtacha qiymatlari bo'yicha mulkchilik shakllari o'rtasidagi farq bitiruvchilar sonidagi tafovutga nisbatan ancha cheklangan.

Bu mulkchilik shaklining o'zi bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalarini belgilab beruvchi yagona omil emasligini anglatadi.

Hududiy tahlil bitiruvchilar soni bilan indeksning o'rtacha qiymati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatdi.

Bitiruvchilar soni ko'p bo'lgan hudud har doim ham indeks bo'yicha eng yuqori natijani qayd etmaydi. Shu sababli hududiy natijalarni oliy ta'lim tashkilotlari tarkibi, ta'lim yo'nalishlari, iqtisodiy ixtisoslashuv va mahalliy mehnat bozori sharoitlari bilan birgalikda baholash zarur.

Bitiruvchilar respublika bo'yicha o'rtacha **2 oy 27 kunda** ishga joylashgan bo'lsa-da, **so'nggi olti oy davomida barqaror band bo'lganlar ulushi 42,9 foizni** tashkil etgan.

Mazkur farq bitiruvchilarni ishga joylashtirish bilan bir qatorda, ularning mehnat bozorida barqaror o'rin egallashiga ko'maklashish ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Bitiruvchilarning respublika bo'yicha o'rtacha oylik daromadi **4,9 mln so'm** miqdorida shakllangan.

IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TOIFALARI KESIMIDAGI QIYOSIY TAHLIL


4.1. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalarining umumiy tavsifi

Qiyosiy tahlilda oliy ta'lim tashkilotlari tayyorlanayotgan kadrlar yo'nalishi va ta'lim dasturlarining xususiyatlariga muvofiq **4 ta toifaga** ajratilgan: **amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar** hamda **ijod (sport)**. Mazkur toifalash oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingida qo'llaniladigan tasnif asosida amalga oshirilgan bo'lib, ushbu sharhda faqat natijalarni guruhlash va qiyosiy tahlil qilish maqsadida qo'llaniladi.

Indeksning yakuniy natijalarida belgilangan talablarga javob beruvchi **119 ta oliy ta'lim tashkilotlari** ishtirok etgan. Shundan **65 tasi ijtimoiy-gumanitar, 32 tasi amaliy, 12 tasi ijod (sport)** va **10 tasi tibbiyot** toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlaridir.

Hisob-kitobda jami **245 818 nafar** bitiruvchining ma'lumotlari inobatga olingan. Bitiruvchilarning **eng katta qismi ijtimoiy-gumanitar** toifada jamlangan bo'lib, mazkur toifa hissasiga **170 ming nafardan ortiq** bitiruvchi to'g'ri keladi. Bu bitiruvchilar soni toifalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha bitiruvchilar va indeksning yakuniy natijalarida ishtirok etgan tashkilotlar soni 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha bitiruvchilar va ishtirokchi tashkilotlar soni, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Toifalardagi oliy ta'lim tashkilotlari va bitiruvchilar soni bir-biridan keskin farq qilgani sababli ularni faqat mutlaq ko'rsatkichlar asosida qiyoslash to'liq xulosa chiqarish imkonini bermaydi.

Shu bois keyingi boblarda indeksning o'rtacha qiymatlari, alohida indikatorlar hamda har bir toifa ichidagi natijalar birgalikda baholanadi.

4.2. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha indeksning o'rtacha qiymatlari

Toifalar bo'yicha indeks bitiruvchilarning soniga vaznlangan o'rtacha qiymat asosida aniqlanadi. Ularning qiymatlari o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

Eng yuqori o'rtacha natija ijod (sport) toifasida qayd etilib, **61,2 ballni** tashkil etgan. Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining o'rtacha ko'rsatkichi **54,6 ballga** teng bo'lgan.

Ijtimoiy-gumanitar va amaliy toifalardagi natijalar bir-biriga yaqin shakllangan. Ijtimoiy-gumanitar toifada indeksning o'rtacha qiymati **53,5 ballni**, amaliy toifada esa **52,5 ballni** tashkil etgan.



8-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha indeksning o'rtacha qiymatlari, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

4.3. Rag'batlantiriluvchi oliy ta'lim tashkilotlarining toifalar bo'yicha taqsimoti


Indeks yakunlari bo'yicha yuqori natija qayd etgan **20 ta oliy ta'lim tashkilotini rag'batlantirish** nazarda tutilgan.

Biroq toifalarning qamrovi, ishtirokchi oliy ta'lim tashkilotlari soni va faoliyat xususiyatlari o'zaro farq qilgani sababli mazkur o'rinlar umumiy reyting ballari asosida to'g'ridan-to'g'ri taqsimlanmaydi.

Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari soni har bir toifada ishtirok etayotgan tashkilotlar soniga mutanosib ravishda belgilangan.

Natijada 20 ta o'rinning **11 tasi ijtimoiy-gumanitar, 5 tasi amaliy, 2 tasi tibbiyot va 2 tasi ijod (sport) toifalaridagi** oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan.

20 ta rag'batlantiriladigan OTTning toifalar bo'yicha taqsimlanishi



9-rasm. Rag'batlantiriladigan 20 ta oliy ta'lim tashkilotining toifalar bo'yicha taqsimoti, 2024/2025 o'quv yili

Manba: indeks ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Taqsimot mexanizmi toifalardagi ishtirokchilar sonini hisobga olib, ko'p sonli oliy ta'lim tashkilotlarini qamrab olgan toifalarga mutanosib ravishda ko'proq o'rin ajratilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, har bir toifa uchun ajratilgan o'rinlarni **aynan shu toifa doirasida eng yuqori indeks qiymatini qayd etgan oliy ta'lim tashkilotlari** egallaydi.

Mazkur yondashuv turli ixtisoslashuvga ega oliy ta'lim tashkilotlarini umumiy shkalada asossiz qiyoslashning oldini oladi hamda har bir toifadagi yetakchi tashkilotlarni o'z faoliyat xususiyatlariga mos ravishda aniqlash imkonini beradi.

V. BITIRUVCHILAR SIFATI INDEKSI BO'YICHA RAG'BATLANTIRILADIGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

5.1. Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlarining umumiy natijalari

2024/2025 o'quv yili yakunlari bo'yicha indeksda eng yuqori natijalarni qayd etgan **20 ta oliy ta'lim tashkilotlari** rag'batlantirish uchun ajratilgan. Ularning **11 tasi ijtimoiy-gumanitar, 5 tasi amaliy, 2 tasi tibbiyot, yana 2 tasi ijod (sport)** toifalariga mansub.

Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari orasida **eng yuqori natija O'zbekiston davlat konservatoriyasida qayd etilib, indeks qiymati 81,5 ballni tashkil etgan.** Keyingi o'rinlarni **O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali 79,6 ball** va **Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi 76,3 ball** bilan egallagan.

Shuningdek, **Toshkent shahridagi Inha universiteti 74,2 ball, Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali 74,0 ball, Osiyo xalqaro universiteti 73,4 ball, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 72,4 ball** hamda **Toshkent xalqaro Nordik universiteti 72,1 ball**dan natija qayd etgan. Ushbu ko'rsatkichlar yuqori natijalar muayyan mulkchilik shakli yoki ta'lim yo'nalishi doirasida cheklanib qolmaganini ko'rsatadi.

Rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatidagi eng yuqori va eng past indeks qiymatlari o'rtasidagi farq **19,5 ballni** tashkil etadi. Biroq natijalarni talqin qilishda indeks ko'rsatkichlari har bir toifa doirasida hisoblangani, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, bitiruvchilar soni va mehnat bozoriga chiqish xususiyatlari o'zaro farq qilishini hisobga olish zarur.

2024/2025 o'quv yili yakunlari bo'yicha indeksning yuqori natijalarini qayd etgan **20 ta oliy ta'lim tashkiloti rag'batlantirish uchun tanlab olingan.** Ularning toifasi, bitiruvchilar soni va indeks ballari **1-jadvalda** keltirilgan.

1-jadval. Indeks bo'yicha rag'batlantiriladigan 20 ta oliy ta'lim tashkiloti, 2024/2025 o'quv yili

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Toifa	Bitiruvchilar soni	Ball
1	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	Ijodiy (sport)	331	81,5
2	O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali	Ijodiy (sport)	42	79,6
3	Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi	Ijtimoiy-gumanitar	725	76,3
4	Toshkent shahridagi Inha universiteti	Amaliy	307	74,2
5	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	Tibbiyot	423	74,0
6	Osiyo xalqaro universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	458	73,4
7	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	Amaliy	1 881	72,4
8	Xalqaro Nordik universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	1 428	72,1
9	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	9 220	70,9
10	Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	207	69,8
11	Olmaliq davlat texnika instituti	Amaliy	913	69,1
12	G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali (Rossiya)	Ijtimoiy-gumanitar	231	69,0
13	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	591	67,7
14	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	1 318	65,0
15	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	Amaliy	1 835	64,9

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Toifa	Bitiruvchilar soni	Ball
16	Axborot texnologiyalari va menejment universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	236	64,7
17	Qo'qon universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	2 180	64,0
18	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	Tibbiyot	1 102	64,0
19	Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	Ijtimoiy-gumanitar	1 986	62,9
20	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	Amaliy	380	62,0

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari.

VI. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

6.1. Umumiy tavsif

Amaliy toifa **texnika, muhandislik, axborot texnologiyalari, transport, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish** bilan bog'liq ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlovchi **32 ta oliy ta'lim tashkilotini** qamrab oladi. Mazkur toifada 2024/2025 o'quv yilida jami **58 924 nafar bitiruvchi** tahlil qilingan.

Ushbu oliy ta'lim tashkilotlari iqtisodiyotning real sektori uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi, barqaror bandligi va daromad darajasi ta'lim natijalarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini baholashda alohida ahamiyatga ega.

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida indeksning o'rtacha qiymati **52,5 ballni** tashkil etgan. Biroq toifa tarkibidagi oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida bitiruvchilarning bandligi, ishga joylashish muddati va daromad ko'rsatkichlari bo'yicha muayyan farqlar mavjud. Bu natijalar har bir oliy ta'lim tashkilotining ixtisoslashuvi, hududiy mehnat bozori, ish beruvchilar bilan hamkorlik ko'lami hamda ta'lim dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi bilan bog'liq holda talqin qilinishi lozim.

6.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari


Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida **eng yuqori natija Toshkent shahridagi Inha universitetida qayd etilib, indeks qiymati 74,2 ballni** tashkil etgan. Keyingi o'rinlarni **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 72,4 ball** hamda **Olmalik davlat texnika instituti 69,1 ball** bilan egallagan.

Shuningdek, **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 65,0 ball** va **Toshkent shahridagi Puchon universiteti 62,0 ball** bilan amaliy toifada rag'batlantiriladigan oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan. Mazkur natijalar amaliy toifadagi yuqori ko'rsatkichlar, asosan, axborot texnologiyalari, muhandislik va sanoat tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlarida qayd etilganini ko'rsatadi.

Nisbatan past natijalar **Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 32,3 ball, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus**

filialida 33,9 ball hamda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida 37,0 ball darajasida qayd etilgan.

Toifadagi eng yuqori va eng past indeks qiymatlari o'rtasidagi farq qariyb 42 ballni tashkil etadi. Bu amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi natijalari bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi.



10-rasm. Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks bo'yicha yuqori va past natijalari, 2024/2025 o'quv yili

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

VII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

7.1. Umumiy tavsif

Tibbiyot toifasi **10 ta** oliy ta'lim tashkilotini qamrab olib, 2024/2025 o'quv yilida ularning **13 183 nafar bitiruvchisi** tahlil qilingan. Mazkur toifaga **tibbiyot, farmatsevtika** va **jamoat salomatligi** sohalari uchun mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari kiritilgan.

Tibbiyot toifasi bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirishi boshqa toifalardan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Xususan, klinik tayyorgarlik, internatura yoki keyingi kasbiy tayyorgarlik bosqichlari ishga joylashish muddati va bandlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin.


Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida indeksning o'rtacha qiymati **54,6 ballni** tashkil etgan. Bu ko'rsatkich amaliy va ijtimoiy-gumanitar toifalarning o'rtacha natijalaridan yuqori bo'lsa-da, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari kesimida indeks ballari bir xil shakllanmagan.

7.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida **eng yuqori natija Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filialida** qayd etilib, **indeks qiymati 74,0 ballni** tashkil etgan. **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 64,0 ball** bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Mazkur ikki oliy ta'lim tashkiloti tibbiyot toifasida rag'batlantiriladigan tashkilotlar sifatida ajratilgan.

Keyingi yuqori natijalar **Andijon davlat tibbiyot institutida 63,6 ball** va **Samarqand davlat tibbiyot universitetida 59,5 ball** darajasida qayd etilgan. **Urganch davlat tibbiyot institutining** indeks qiymati esa **56,7 ballni** tashkil etgan.

Past natijalar **Toshkent davlat tibbiyot universitetida 43,7 ball**, **Toshkent farmatsevtika institutida 52,8 ball** va **Central Asian Universityda 53,9 ball** darajasida shakllangan. Toifadagi eng yuqori va eng past ko'rsatkich o'rtasidagi farq **30,3 ballni** tashkil etadi.



11-rasm. Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks ballari bo'yicha yuqori va past natijalari

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks bo'yicha to'liq natijalari **3-ildovada** keltirilgan.

VIII. IJTIMOIIY-GUMANITAR TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

8.1. Umumiy tavsif

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari tahlilga kiritilgan tashkilotlar va bitiruvchilar soni bo'yicha **eng yirik toifa** hisoblanadi.

Mazkur toifa **65 ta** oliy ta'lim tashkilotini qamrab olgan bo'lib, 2024/2025 o'quv yilida ularning **171 874 nafar bitiruvchisi** tahlil qilingan.

Ushbu toifaga **pedagogika, iqtisodiyot, huquq, xorijiy tillar, boshqaruv** va **boshqa ijtimoiy-gumanitar** ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari kiritilgan.

Ta'lim yo'nalishlari va bitiruvchilar sonining keng qamrovi mazkur toifa natijalarini talqin qilishda oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi hamda tegishli kasblar bo'yicha mehnat bozori xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida indeksning o'rtacha qiymati **53,5 ballni** tashkil etgan. Biroq toifa tarkibining ko'lam va xilma-xilligi sababli alohida oliy ta'lim tashkilotlarining indeks natijalari o'rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi.

8.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida **eng yuqori natija Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazida** qayd etilib, **indeks qiymati 76,3 ballni** tashkil etgan.


Keyingi o'rinlarni **Osiyo xalqaro universiteti 73,4 ball, Xalqaro Nordik universiteti 72,1 ball bilan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 70,9 ball, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 69,8 ball** hamda **G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali 69 ball** bilan egallagan.

Mazkur toifada rag'batlantiriladigan **11 ta** oliy ta'lim tashkilotining indeks qiymatlari **62,9 ball dan 76,3 ballgacha** bo'lgan.

Ushbu guruhga davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining kirgani yuqori natijalar muayyan mulkchilik shakli bilan cheklanmaganini ko'rsatadi.

Past natijalar **Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetida 31,9 ball, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida 40,5 ball va SAMBHRAM universitetida 41,7 ball** darajasida qayd etilgan.

Toifadagi eng yuqori va eng past indeks qiymatlari o'rtasidagi farq **44,4 ballni** tashkil etadi.



12-rasm. Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks ballari bo'yicha yuqori va nisbatan past natijalari

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks bo'yicha to'liq natijalari **4-ilovada** keltirilgan

IX. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

9.1. Umumiy tavsif

Ijod (sport) toifasi **san'at, madaniyat, musiqa, xoreografiya, dizayn, kinematografiya** va **sport** sohalari uchun kadrlar tayyorlovchi **12 ta oliy ta'lim tashkilotini** qamrab oladi. 2024/2025 o'quv yilida mazkur toifadagi **5 451 nafar bitiruvchining** mehnat bozoridagi natijalari tahlil qilingan.

Ushbu toifada kadrlar tayyorlash ko'lamini boshqa toifalarga nisbatan cheklangani sababli, indeksni hisoblashda oliy ta'lim tashkilotida kamida 200 nafar bitiruvchi bo'lishiga oid talab mazkur toifaga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu yondashuv ixtisoslashgan ijod va sport oliy ta'lim tashkilotlarining natijalarini tahlil qamroviga kiritish imkonini beradi.

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida indeksning o'rtacha qiymati **61,2 ballni** tashkil etgan va bu toifalar orasidagi eng yuqori o'rtacha natija hisoblanadi.

9.2. Indeks natijalari va toifa yetakchilari

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari orasida **eng yuqori natija O'zbekiston davlat konservatoriyasida qayd etilib, indeks qiymati 81,5 ballni** tashkil etgan.

O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali 79,6 ball bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Mazkur ikki oliy ta'lim tashkiloti toifa bo'yicha rag'batlantiriladigan tashkilotlar sifatida ajratilgan.


Keyingi yuqori natijalar **Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati institutida 75,1 ball**, hamda **O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filialida 69,3 ball**, **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 66,2 balldan** qayd etilgan.

Past natijalar **S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining Toshkent shahar filialida 38,4 ball** hamda **Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida 44,7 ball** darajasida shakllangan.

Mazkur toifada indeks natijalariga o'zini o'zi band qilgan va yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotgan bitiruvchilarni hisobga olish tartibi ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday bandlik shakllarining oshiruvchi koeffitsiyentlar orqali baholanishi ijod (sport)

sohalaridagi mustaqil kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini indeksda aks ettirish imkonini beradi.

Ijod (sport) toifasidagi OTlar: indeks ballari bo'yicha yuqori va nisbatan past natijalar



13-rasm. Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks ballari bo'yicha yuqori va nisbatan past natijalari

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining indeks bo'yicha to'liq natijalari **5-ildavda** keltirilgan.

X. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI NATIJALARINING QIYOSIY TAHLILI

10.1. Asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilar

Oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini indeks tarkibidagi alohida ko'rsatkichlar bo'yicha qiyoslash yetakchilik bir xil tashkilotlar doirasida jamlanmaganini ko'rsatadi. Ayrim oliy ta'lim tashkilotlari ishga joylashish tezligi bo'yicha, boshqalari esa barqaror bandlik yoki bitiruvchilar daromadi bo'yicha yuqori natijalarni qayd etgan.

Bitiruvchilarning ishga joylashish tezligi bo'yicha **Qarshi xalqaro universiteti – 1 oy 4 kun, Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi – 1 oy 11 kun, Xalqaro Nordik universiteti – 1 oy 14 kun va Andijon davlat universiteti – 1 oy 17 kun** bilan yuqori natijalarni ko'rsatgan.

Barqaror bandlik bo'yicha **O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filialida 85,7 foiz, O'zbekiston davlat konservatoriyasida 75,5 foiz va Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati institutida 73,4 foizlik** ko'rsatkich qayd etilgan.

Bitiruvchilarning o'rtacha oylik daromadi bo'yicha **Toshkent shahridagi Inha universiteti 12,6 mln so'm bilan yetakchilik qilgan. Toshkent Xalqaro Vestminster universitetida mazkur ko'rsatkich 12,5 mln so'mni, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida esa 10,6 mln so'mni** tashkil etgan.

10.2. Past natijalar va ustuvor tahlil yo'nalishlari

Tahlil ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida indeksning bir nechta tarkibiy ko'rsatkichi bo'yicha past natijalar shakllanganini ko'rsatadi.

Xususan, amaliy toifada **Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti 32,3 ball, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali 33,9 ball hamda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 37,0 ball** qayd etgan.

Mazkur natijalarni faqat umumiy indeks balli asosida talqin qilish yetarli emas. **Past natijaning asosiy manbasini aniqlash uchun ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik va daromad ko'rsatkichlarining har biri alohida o'rganilishi zarur.**

Bunday yondashuv muammo bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirishidami, ish o'rnida uzoq muddat saqlanishidami yoki daromad darajasidami, degan savollarga aniq javob berish imkonini beradi.

Natijalarga oliy ta'lim tashkilotining tayyorlov yo'nalishlari, hududiy mehnat bozoridagi ish o'rinlari tarkibi, ish beruvchilar bilan hamkorlik ko'lami va bitiruvchilarni ishga joylashtirish mexanizmlari ta'sir qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, past natija qayd etgan oliy ta'lim tashkilotlari **ta'lim dasturlarining amaliy mazmunini kuchaytirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish va bitiruvchilarning mehnat bozoriga o'tishini qo'llab-quvvatlash** ustuvor yo'nalishlar sifatida qarashi lozim.

XI. ASOSIY XULOSALAR VA AMALIY AHAMIYAT

Indeks oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalari asosida baholash imkonini berdi. Indeks ishga joylashish tezligi, barqaror bandlik, o'rtacha oylik daromad va bandlik toifasiga oid ma'muriy ma'lumotlarni yagona hisoblash tizimida birlashtirdi.

Birinchidan, 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlarini **249 432 nafar talaba** bitirgan.

Metodologiyada belgilangan istisnalar qo'llanilgandan keyin **245 976 nafar bitiruvchiga** oid ma'lumotlar indeks hisob-kitobida inobatga olingan. Yakuniy natijalar belgilangan talablarga javob beruvchi **119 ta oliy ta'lim tashkiloti** kesimida shakllantirilgan.

Ikkinchidan, bitiruvchilarning **211 587 nafari** yoki **84,8 foizi** davlat oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelishiga qaramay, indeksning eng yuqori o'rtacha qiymati xorijiy universitetlar filiallarida **58,7 ballni** tashkil etgan. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida o'rtacha ko'rsatkich **55,1 ball**, davlat oliy ta'lim tashkilotlarida esa **53,0 ball** bo'lgan.

Bu **mulkchilik shaklining o'zi yuqori natijani kafolatlamasligini** ko'rsatadi.

Uchinchidan, bitiruvchilar soni bilan hududning o'rtacha indeks qiymati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik aniqlanmagan.

Toshkent shahri 80 742 nafar bitiruvchi bilan eng yirik hududiy kontingentga ega bo'lib, uning o'rtacha indeks qiymati **60 ballni** tashkil etgan.

Eng yuqori hududiy natijalar **Navoiy viloyatida 62,5 ball** va **Surxondaryo viloyatida 62,1 ball**, eng past ko'rsatkich esa **Qoraqalpog'iston Respublikasida 49,5 ball** darajasida qayd etilgan.

To'rtinchidan, respublika bo'yicha bitiruvchilarning o'rtacha ishga joylashish muddati **2 oy 27 kunni**, barqaror band bitiruvchilar ulushi **42,9 foizni** va o'rtacha oylik daromad **4,9 mln so'mni** tashkil etgan.

Ushbu natijalar bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirishi bilan bir qatorda, **ularning barqaror bandligini ta'minlash ustuvor vazifa** ekanini ko'rsatadi.

Beshinchidan, toifalar bo'yicha o'rtacha indeks qiymati ijod (sport) toifasida **61,2 ball**, tibbiyot toifasida **54,6 ball**, ijtimoiy-gumanitar toifada **53,5 ball** va amaliy toifada **52,5 ballni** tashkil etgan.

Oltinchidan, rag'batlantiriladigan **20 ta** oliy ta'lim tashkiloti toifalardagi ishtirokchilar soniga mutanosib ravishda ajratilgan. Ularning **11 tasi** ijtimoiy-gumanitar, **5 tasi** amaliy, **2 tasi** tibbiyot va **2 tasi** ijod (sport) toifalariga mansub.

Bu rag'batlantirish mexanizmida toifalarning ko'lami va faoliyat xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Yettinchidan, ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida bir nechta tarkibiy ko'rsatkich bo'yicha past natijalar qayd etilgan.

Bunday tashkilotlar **ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va bitiruvchilarni kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida qo'llab-quvvatlashi** lozim.

Indeksni har yili hisoblash, natijalar dinamikasini kuzatish va ma'lumotlar sifatini muntazam takomillashtirish oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini bir yillik natijalar asosida emas, balki barqaror o'zgarishlar nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Shu jihatdan, indeks **o'lchash, rag'batlantirish va natijalarni yaxshilashni o'zaro bog'lovchi boshqaruv vositasi** sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
URL: <https://lex.uz/docs/5013007> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 maydagi «Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-76-son Farmoni.
URL: <https://lex.uz/docs/7513052> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni.
URL: <https://lex.uz/docs/4396419> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

II. Milliy axborot tizimlari va ma'muriy ma'lumotlar

4. «Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasining 2024/2025 o'quv yili yakunlariga oid ma'lumotlari.
5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining «Oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi» (HEMIS) ma'lumotlari.
URL: <https://hemis.uz> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
6. Soliq qo'mitasining My.soliq.uz elektron davlat xizmatlari portali orqali taqdim etilgan bitiruvchilarning daromadlari, tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilish holatiga oid ma'lumotlar.
URL: <https://my.soliq.uz> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
7. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining «Yagona milliy mehnat tizimi» (my.mehnat.uz) orqali taqdim etilgan bitiruvchilarning ish joyi, lavozimi, ishga qabul qilingan sanasi va mehnat stajiga oid ma'lumotlar.
URL: <https://my.mehnat.uz> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
8. Mudofaa vazirligi tomonidan taqdim etilgan harbiy xizmatga qabul qilingan va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan bitiruvchilarga oid ma'muriy ma'lumotlar.
9. Ijtimoiy himoya milliy agentligining Yagona ijtimoiy reyestri orqali taqdim etilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchilarga oid ma'lumotlar.
URL: <https://ihma.uz> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

10. Sog'liqni saqlash vazirligining DMED tibbiy axborot tizimi orqali taqdim etilgan bola parvarishi ta'tilida bo'lgan bitiruvchilarga oid ma'lumotlar.

URL: <https://dmed.uz> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

11. Ichki ishlar vazirligining migratsiyaga oid axborot tizimi orqali taqdim etilgan bitiruvchilarning mamlakatdan chiqishi va mamlakatga qaytishiga oid ma'lumotlar.

12. Adliya vazirligining davlat xizmatlari axborot tizimlari hamda «FHDYOning yagona elektron arxivi» orqali taqdim etilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan va vafot etgan bitiruvchilarga oid ma'lumotlar.

13. Iqtisodiyot va moliya vazirligining «UzASBO» dasturiy majmuasi orqali taqdim etilgan bitiruvchilarning ish haqi va daromadlariga oid ma'lumotlar.

III. Xalqaro metodologik va qiyosiy manbalar

14. OECD. *Education at a Glance 2025: OECD Indicators*. OECD Publishing, Paris, 2025.

URL: <https://doi.org/10.1787/1c0d9c79-en> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

15. Council of the European Union. *Council Recommendation of 20 November 2017 on Tracking Graduates* (2017/C 423/01). Official Journal of the European Union, 9 December 2017.

URL: [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32017H1209\(01\)](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32017H1209(01)) (murojaat sanasi: 04.08.2026).

16. Higher Education Statistics Agency (HESA). *Graduate Outcomes: Definitions and Survey Methodology*.

URL: <https://www.hesa.ac.uk/support/definitions/graduates> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

17. Korean Educational Development Institute (KEDI). *Results of the 2024 Employment Statistics Survey of Graduates of Higher Education Institutions*. 30 December 2025.

URL: https://www.kedi.re.kr/khome/main/announce/selectBroadAnnounceForm.do?article_sq_no=36242&board_sq_no=3&selectTp=0 (murojaat sanasi: 04.08.2026).

18. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology of Japan (MEXT). *Employment Status Survey of University and Other Graduates, Fiscal Year 2024*.

URL: https://www.mext.go.jp/b_menu/toukei/chousa01/naitei/kekka/k_detail/1422624_00022.htm (murojaat sanasi: 04.08.2026).

19. Ministry of Education of the People's Republic of China. *Notice on Conducting a Tracking Survey of the Employment Status of University Graduates*. Teaching Department Letter [2020] No. 31, 15 September 2020.

URL: https://www.moe.gov.cn/srcsite/A15/s3265/202009/t20200927_491672.html (murojaat sanasi: 04.08.2026).

Indeksning yakuniy reytingida ishtirok etmaydigan oliy ta'lim tashkilotlari

Indeks metodologiyasiga muvofiq, hisobot yilida **200 nafardan kam bitiruvchiga ega oliy ta'lim tashkilotlari yakuniy reytingda ishtirok etmaydi**, ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari bundan mustasno. Mazkur ilovada ushbu mezon bo'yicha yakuniy reytingga kiritilmagan oliy ta'lim tashkilotlari, ularning bitiruvchilari soni va hisoblangan indeks ballari keltirilgan.

Jami – 51 ta oliy ta'lim tashkiloti, jumladan, ijtimoiy-gumanitar toifada **38 ta**, amaliy toifada **9 ta** va tibbiyot toifasida **4 ta**.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari (38 ta)

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchilar soni	Ball
1	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	28	76,8
2	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)	Toshkent viloyati	Davlat	10	76,0
3	University of Business and Science	Namangan viloyati	Nodavlat	55	69,8
4	Namangan davlat chet tillari instituti	Namangan viloyati	Nodavlat	43	69,5
5	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	Surxondaryo viloyati	Davlat	193	68,8
6	Buxoro innovatsiyalar universiteti	Buxoro viloyati	Nodavlat	158	66,8
7	Toshkent xalqaro universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	9	65,1
8	Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	60	57,5

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchilar soni	Ball
9	Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Toshkent shahridagi filiali	Toshkent shahri	Xorijiy	21	53,4
10	Turan xalqaro universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	34	53,4
11	«Vatan» universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	57	53,0
12	Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	54	52,8
13	Ma'mun universiteti	Xorazm viloyati	Nodavlat	196	51,3
14	Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	Farg'ona viloyati	Davlat	5	51,0
15	Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti	Toshkent shahri	Nodavlat	6	50,0
16	Varsovia biznes va amaliy fanlar universitetining Andijon filiali	Andijon viloyati	Xorijiy	114	47,6
17	TEAM University	Toshkent shahri	Nodavlat	56	46,8
18	Toshkent shahridagi Amiti universiteti	Toshkent shahri	Xorijiy	99	46,8
19	Diplomat University	Toshkent shahri	Nodavlat	183	46,4
20	STARS International University	Toshkent shahri	Nodavlat	181	44,5
21	Turon universiteti	Qashqadaryo viloyati	Nodavlat	115	42,7
22	Xalqaro innovatsion universitet	Qashqadaryo viloyati	Nodavlat	26	41,5
23	M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali	Toshkent viloyati	Xorijiy	158	41,4
24	Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining Toshkentdagi filiali	Toshkent shahri	Xorijiy	79	40,7

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchi-lar soni	Ball
25	Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti	Toshkent shahri	Nodavlat	39	40,3
26	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	Andijon viloyati	Nodavlat	49	39,5
27	Urganch RANCH texnologiya universiteti	Xorazm viloyati	Nodavlat	59	39,1
28	Toshkent ijtimoiy innovatsiyalar universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	31	38,5
29	Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti	Toshkent viloyati	Nodavlat	20	36,3
30	O'zbekistondagi Riga Nordik Universiteti	Farg'ona viloyati	Xorijiy	29	36,2
31	«Zarmed» universiteti	Buxoro viloyati	Nodavlat	34	35,7
32	O'zbekistondagi Sharda universiteti	Andijon viloyati	Xorijiy	114	34,6
33	«Yangi asr» universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	6	31,3
34	Toshkent gumanitar fanlar universiteti	Toshkent shahri	Nodavlat	26	31,0
35	University of Innovation Technologies	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nodavlat	43	30,6
36	Angren universiteti	Toshkent viloyati	Nodavlat	12	29,3
37	Xalqaro qishloq ho'jaligi universiteti	Toshkent viloyati	Davlat	16	28,1
38	TMC instituti	Toshkent shahri	Nodavlat	14	14,8

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari (9 ta)

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchi-lar soni	Ball
1	«Yangi O'zbekiston» universiteti	Toshkent shahri	Davlat	129	76,0
2	IT Park University	Toshkent shahri	Nodavlat	75	66,3

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchi-lar soni	Ball
3	Geologiya fanlari universiteti	Toshkent shahri	Davlat	198	62,6
4	«MISiS» milliy tadqiqot texnologik universitetining Olmaliq shahridagi filiali	Toshkent viloyati	Xorijiy	114	59,5
5	«D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti» federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali.	Toshkent shahri	Xorijiy	85	50,7
6	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	Toshkent shahri	Xorijiy	121	44,9
7	Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik malakalar instituti	Toshkent viloyati	Xorijiy	178	41,9
8	«MIFI» milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filiali	Toshkent shahri	Xorijiy	44	41,9
9	Japan Digital University	Toshkent shahri	Nodavlat	5	3,8

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari (4 ta)

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchi-lar soni	Ball
1	Farmatsevtik ta'lim va tadqiqotlar instituti	Toshkent shahri	Nodavlat	51	73,8
2	«Qozon federal universiteti»ning Jizzax shahridagi filiali	Jizzax viloyati	Xorijiy	14	48,2
3	Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti	Buxoro viloyati	Nodavlat	113	36,4

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Hudud	Mulkchilik shakli	Bitiruvchilar soni	Ball
4	Central Asian Medical University	Farg'ona viloyati	Nodavlat	55	36,3

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Amaliy toifadagi oliy ta’lim tashkilotlarining indeks bo’yicha natijalari

Mazkur ilovada 2024/2025 o’quv yili yakunlari bo’yicha indeksning yakuniy hisob-kitobida ishtirok etgan **32 ta amaliy toifadagi oliy ta’lim tashkilotining natijalari** keltirilgan. Oliy ta’lim tashkilotlari indeks balli bo’yicha yuqoridan pastga qarab joylashtirilgan.

**Amaliy toifadagi oliy ta’lim tashkilotlarining
Bitiruvchilar sifati indeksi bo’yicha natijalari**

T/r	Oliy ta’lim tashkilotlari nomi	Bitiruv- chilar soni	Bandlik toifasi			O’rtacha ishga joylashish tezligi	O’rtacha oylik daromad, mln so’m	Barqaror band bitiruvchi- lar ulushi	Ball
			Yuqori koeffitsiyent	O’rta koeffitsiyent	Koeffitsi- yentsiz				
1	Toshkent shahridagi Inha universiteti	307	83	38	33	3 oy 26 kun	12,6	68,1%	74,2
2	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	1 881	799	231	170	2 oy 17 kun	8,1	68,3%	72,4
3	Olmalik davlat texnika instituti	913	324	75	97	3 oy 5 kun	7,2	61,2%	69,1
4	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	1 835	458	167	180	3 oy 29 kun	9,4	52,0%	65,0
5	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	380	166	24	25	2 oy 16 kun	5,8	57,7%	62,0

6	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti	2 103	552	125	230	4 oy 6 kun	6,2	48,4%	58,4
7	I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali	253	21	35	29	5 oy 23 kun	7,5	59,0%	58,3
8	Buxoro davlat texnika universiteti	3 613	1186	352	473	3 oy 10 kun	4,8	39,6%	57,8
9	Toshkent davlat texnika universiteti	4 710	1176	290	399	4 oy 7 kun	6,8	45,3%	57,5
10	Toshkent davlat transport universiteti	3 373	844	194	314	3 oy 22 kun	7,0	45,0%	57,4
11	Andijon davlat texnika instituti	1 975	593	136	106	3 oy 5 kun	6,2	40,0%	55,3
12	Andijon davlat universiteti	5 312	2307	554	243	1 oy 17 kun	3,6	45,2%	54,9
13	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	1 374	347	87	130	3 oy 24 kun	6,8	42,6%	53,9
14	Toshkent shahridagi Adju universiteti	341	50	34	43	4 oy 15 kun	6,7	41,1%	51,5
15	Toshkent davlat agrar universiteti	2 522	696	104	130	3 oy 13 kun	5,3	38,9%	50,0
16	Jizzax politexnika instituti	2 044	461	145	167	3 oy 24 kun	4,8	35,5%	49,3
17	Namangan davlat texnika universiteti	3 920	931	231	256	3 oy 18 kun	5,0	34,2%	48,6
18	Samarqand davlat texnika universiteti	1 736	387	105	136	4 oy 7 kun	4,5	33,7%	48,1
19	Qarshi davlat texnika universiteti	5 152	1022	218	320	3 oy 29 kun	5,0	30,8%	47,1

20	Andijon davlat qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	1 476	428	58	64	3 oy 4 kun	4,7	33,0%	46,7
21	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	1 702	366	83	97	4 oy 0 kun	5,8	35,6%	46,3
22	Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	336	81	12	22	3 oy 26 kun	4,5	36,9%	46,2
23	Farg'ona davlat texnika universiteti	3 570	638	195	228	4 oy 7 kun	4,9	33,3%	46,1
24	Nukus davlat texnika universiteti	572	120	31	27	4 oy 2 kun	4,3	31,8%	44,8
25	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	1 862	434	167	102	3 oy 17 kun	3,6	24,3%	43,5
26	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	1 241	281	52	63	3 oy 17 kun	5,6	30,8%	43,3
27	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkentdagi filiali	318	78	11	17	3 oy 12 kun	3,6	30,2%	41,7
28	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	1 360	301	67	88	3 oy 23 kun	3,4	30,6%	41,6
29	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali	626	133	49	23	3 oy 6 kun	2,8	26,4%	41,1
30	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	284	48	13	18	4 oy 15 kun	3,4	20,1%	37,0

31	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	311	33	33	20	4 oy 4 kun	2,1	19,3%	33,9
32	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	573	68	65	28	3 oy 23 kun	2,1	13,3%	32,3

3-ilova

Tibbiyot toifasidagi oliy ta’lim tashkilotlarining indeks bo’yicha natijalari

Mazkur ilovada 2024/2025 o’quv yili yakunlari bo’yicha indeksning yakuniy hisob-kitobida ishtirok etgan **10 ta tibbiyot toifasidagi oliy ta’lim tashkilotining natijalari** keltirilgan. Oliy ta’lim tashkilotlari indeks balli bo’yicha yuqoridan pastga qarab joylashtirilgan.

**Tibbiyot toifasidagi oliy ta’lim tashkilotlarining
Bitiruvchilar sifati indeksi bo’yicha natijalari**

T/r	Oliy ta’lim tashkilotlari nomi	Bitiruv- chilar soni	Bandlik toifasi			O’rtacha ishga joylashish tezligi	O’rtacha oylik daromad, mln so’m	Barqaror band bitiruvchil ar ulushi	Ball
			Yuqori koeffitsiyent	O’rta koeffitsiyent	Koeffitsi- yentsiz				
1	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	423	338	2	39	3 oy 6 kun	4,9	55,5%	74,0
2	Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	1 102	660	5	155	3 oy 0 kun	4,6	44,4%	64,0
3	Andijon davlat tibbiyot instituti	2 013	1458	8	220	2 oy 18 kun	4,3	48,0%	63,6
4	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	1 668	1032	15	269	4 oy 7 kun	4,8	43,9%	59,5
5	Urganch davlat tibbiyot instituti	779	369	4	71	3 oy 0 kun	4,1	40,3%	56,7
6	Qoraqalpog’iston tibbiyot instituti	425	286	3	75	4 oy 17 kun	4,1	41,4%	55,0

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Bitiruv- chilar soni	Bandlik toifasi			O'rtacha ishga joylashish tezligi	O'rtacha oylik daromad, mln so'm	Barqaror band bitiruvchil ar ulushi	Ball
			Yuqori koeffitsiyent	O'rta koeffitsiyent	Koeffitsi- yentsiz				
7	Buxoro davlat tibbiyot instituti	1 366	704	9	148	3 oy 10 kun	4,1	40,5%	55,0
8	Central Asian University	347	189	2	51	4 oy 17 kun	8,0	39,8%	53,8
9	Toshkent farmatsevtika instituti	828	526	5	162	5 oy 10 kun	4,5	41,5%	52,8
10	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	3 999	2044	25	840	4 oy 0 kun	4,2	30,3%	43,7

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi oliy ta’lim tashkilotlarining indeks bo’yicha natijalari

Mazkur ilovada 2024/2025 o’quv yili yakunlari bo’yicha indeksning yakuniy hisob-kitobida ishtirok etgan **65 ta ijtimoiy-gumanitar toifasidagi oliy ta’lim tashkilotining natijalari** keltirilgan. Oliy ta’lim tashkilotlari indeks balli bo’yicha yuqoridan pastga qarab joylashtirilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta’lim tashkilotlarining
Bitiruvchilar sifati indeksi bo’yicha natijalari**

T/r	Oliy ta’lim tashkilotlari nomi	Bitiruv- chilar soni	Bandlik toifasi			O’rtacha ishga joylashish tezligi	O’rtacha oylik daromad, mln so’m	Barqaror band bitiruvchi- lar ulushi	Ball
			Yuqori koeffitsi- yent	O’rta koeffitsiyent	Koeffitsi- yentsiz				
1	Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazi	725	436	72	34	1 oy 11 kun	9,1	58,2%	76,3
2	Osiyo xalqaro universiteti	458	241	49	23	1 oy 23 kun	6,9	65,7%	73,4
3	Xalqaro Nordik universiteti	1 428	966	92	139	1 oy 14 kun	4,2	71,2%	72,1
4	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	9 220	3208	475	774	3 oy 16 kun	10,3	59,5%	70,9
5	Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	207	91	28	17	2 oy 8 kun	7,5	62,3%	69,8

6	G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali (Rossiya)	231	110	35	14	1 oy 18 kun	11,5	55,9%	69,0
7	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	591	120	53	88	4 oy 1 kun	10,6	53,1%	67,7
8	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	1 318	309	89	118	4 oy 14 kun	12,5	57,2%	65,2
9	Axborot texnologiyalari va menejment universiteti	236	87	41	12	2 oy 1 kun	4,6	59,7%	64,7
10	Qo'qon universiteti	2 180	1096	152	129	2 oy 5 kun	4,2	57,9%	64,0
11	Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	1 986	877	270	105	1 oy 24 kun	4,2	54,7%	62,9
12	Navoiy innovatsiyalar universiteti	1 049	454	74	60	2 oy 8 kun	5,4	53,0%	61,4
13	Qarshi xalqaro universiteti	508	253	32	24	1 oy 4 kun	4,0	51,8%	59,8
14	Termiz davlat pedagogika instituti	2 167	617	547	271	3 oy 11 kun	2,9	47,5%	59,6
15	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	1 997	856	259	105	1 oy 24 kun	3,4	51,8%	58,9
16	Buxoro xalqaro universiteti	291	91	31	17	3 oy 13 kun	5,2	50,9%	57,9
17	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	1 453	625	100	46	1 oy 24 kun	4,2	48,5%	57,2
18	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	1 910	553	98	160	3 oy 20 kun	5,9	44,7%	57,2
19	Osiyo texnologiyalar universiteti	647	297	35	39	1 oy 24 kun	3,2	50,9%	56,9

20	Termiz davlat universiteti	4 886	1810	525	318	2 oy 9 kun	4,1	46,2%	56,7
21	Jizzax davlat pedagogika universiteti	5 219	1971	722	286	1 oy 29 kun	3,8	48,3%	56,3
22	Qarshi davlat universiteti	5 799	2487	616	231	1 oy 20 kun	3,3	47,9%	55,9
23	Renessans ta'lim universiteti	1 493	574	107	69	2 oy 10 kun	4,7	47,6%	55,8
24	Profi universiteti	1 481	598	124	84	2 oy 8 kun	3,9	50,6%	55,7
25	Samarqand davlat universiteti	6 593	2246	564	395	2 oy 21 kun	4,2	45,0%	54,0
26	Guliston davlat universiteti	4 193	1290	623	230	2 oy 18 kun	4,2	45,2%	54,0
27	Toshkent davlat yuridik universiteti	1 676	240	137	160	4 oy 14 kun	8,4	39,8%	53,9
28	O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali	886	207	109	59	3 oy 15 kun	5,2	42,8%	53,6
29	Buxoro davlat universiteti	5 336	1713	710	268	2 oy 17 kun	4,1	43,0%	52,6
30	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti	14 246	5072	918	805	2 oy 9 kun	5,1	43,7%	52,4
31	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	5 275	1713	696	280	2 oy 13 kun	4,0	45,2%	52,4
32	Namangan davlat universiteti	6 538	2258	683	306	2 oy 12 kun	4,0	41,9%	52,3
33	Qo'qon davlat universiteti	4 539	1692	534	243	1 oy 26 kun	3,1	43,3%	52,0
34	Oriental universiteti	646	177	50	34	2 oy 17 kun	8,0	38,7%	51,9

35	Urganch davlat universiteti	7 750	2441	803	591	2 oy 17 kun	4,0	40,8%	51,8
36	Navoiy davlat universiteti	5 305	1849	749	310	2 oy 5 kun	3,6	45,7%	51,8
37	Farg'ona davlat universiteti	8 141	2578	973	458	2 oy 12 kun	3,7	41,4%	51,2
38	Nukus davlat pedagogika instituti	4 533	1414	665	228	2 oy 13 kun	2,8	43,9%	50,9
39	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	423	52	90	41	4 oy 0 kun	3,5	43,7%	50,4
40	ISFT instituti	349	53	12	24	5 oy 13 kun	7,4	40,1%	50,3
41	«Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	401	81	26	19	3 oy 7 kun	6,4	35,4%	50,3
42	Samarqand davlat pedagogika instituti	2 462	684	383	157	2 oy 18 kun	3,3	41,0%	50,3
43	O'zbekiston Milliy universiteti	7 367	1665	679	480	3 oy 22 kun	5,7	40,5%	50,2
44	Buxoro davlat pedagogika instituti	2 007	423	528	108	2 oy 21 kun	2,8	42,9%	49,9
45	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	5 945	1729	752	331	2 oy 16 kun	4,2	41,7%	49,4
46	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	633	131	30	31	3 oy 16 kun	7,2	34,4%	48,1
47	A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali	288	58	18	23	3 oy 21 kun	6,5	42,1%	48,0

48	Toshkentdagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish instituti	830	132	44	79	4 oy 20 kun	9,3	40,1%	47,8
49	Andijon davlat chet tillari instituti	808	178	138	52	2 oy 19 kun	3,9	34,9%	47,2
50	Alfraganus universiteti	580	138	39	41	2 oy 25 kun	5,8	37,2%	47,1
51	Namangan davlat pedagogika instituti	452	115	55	29	2 oy 29 kun	3,1	37,4%	46,9
52	Andijon davlat pedagogika instituti	1 500	370	265	67	2 oy 20 kun	2,9	36,3%	46,8
53	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	1 554	362	210	92	2 oy 18 kun	3,6	35,9%	45,9
54	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	6 414	750	1086	424	3 oy 25 kun	4,7	35,6%	45,2
55	Toshkent amaliy fanlar universiteti	347	80	23	22	3 oy 23 kun	3,9	34,9%	45,2
56	Urganch davlat pedagogika instituti	413	80	69	33	3 oy 11 kun	2,7	37,0%	45,1
57	Guliston davlat pedagogika instituti	441	61	108	26	3 oy 9 kun	2,8	37,6%	45,0
58	Samarqand davlat chet tillar instituti	3 401	594	466	195	3 oy 6 kun	4,1	33,0%	44,3
59	Tashkent International University of Education xalqaro universiteti	276	45	13	16	4 oy 16 kun	6,8	33,0%	43,9
60	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	1 311	191	78	83	4 oy 12 kun	5,8	31,4%	42,9

61	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	6 350	1033	708	358	3 oy 24 kun	3,8	29,7%	42,1
62	Millat umidi universiteti	315	36	41	18	3 oy 6 kun	5,6	33,3%	42,0
63	SAMBHRAM universiteti	568	70	88	37	3 oy 26 kun	2,9	28,9%	41,7
64	O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi	359	47	38	19	3 oy 19 kun	5,1	28,7%	40,5
65	Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti	511	67	26	24	3 oy 27 kun	3,2	18,4%	31,9

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta’lim tashkilotlarining indeks bo’yicha natijalari

Mazkur ilovada 2024/2025 o’quv yili yakunlari bo’yicha indeksning yakuniy hisob-kitobida ishtirok etgan **12 ta ijod (sport) toifasidagi oliy ta’lim tashkilotining natijalari** keltirilgan. Oliy ta’lim tashkilotlari indeks balli bo’yicha yuqoridan pastga qarab joylashtirilgan.

**Ijod(sport) toifasidagi oliy ta’lim tashkilotlarining
Bitiruvchilar sifati indeksi bo’yicha natijalari**

T/r	Oliy ta’lim tashkilotlari nomi	Bitiruv- chilar soni	Bandlik toifasi			O’rtacha ishga joylashish tezligi	O’rtacha oylik daromad, mln so’m	Barqaror band bitiruvchi- lar ulushi	Ball
			Yuqori koeffitsiyent	O’rta koeffitsiyent	Koeffitsi- yentsiz				
1	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi	331	279	4	13	2 oy 11 kun	5,2	75,5%	81,5
2	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali	42	37	0	1	3 oy 3 kun	4,3	85,7%	79,6
3	Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbekiston milliy musiqa san’ati instituti	155	129	0	16	3 oy 8 kun	4,2	73,4%	75,1
4	O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali	16	14	0	2	6 oy 0 kun	3,2	56,3%	69,3
5	O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti	1 526	1038	17	282	2 oy 15 kun	5,1	53,2%	66,2

6	Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti	123	85	0	16	2 oy 22 kun	4,2	59,5%	64,8
7	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	142	92	3	29	2 oy 7 kun	4,6	43,0%	62,5
8	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	148	99	0	21	2 oy 1 kun	4,4	46,3%	61,7
9	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	422	290	9	79	2 oy 27 kun	3,7	49,1%	61,5
10	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	2 028	1092	37	394	2 oy 13 kun	5,4	41,2%	56,8
11	Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti	511	215	8	194	2 oy 25 kun	5,4	30,1%	44,7
12	S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining Toshkent shahar filiali	7	2	0	0	8 oy 12 kun	23,4	29,0%	38,4

Manba: »Bitiruvchi sifati indeksi» avtomatlashtirilgan raqamli platformasi ma'lumotlari asosida.

METODOLOGIK IZOH

Mazkur axborot-tahliliy sharhda keltirilgan ko'rsatkichlar material shakllantirilgan sana holatidagi ma'lumotlar asosida hisoblangan.

Bitiruvchilar sifati indeksi avtomatlashtirilgan raqamli platformasida ma'lumotlarning yangilanib borishi, hisob-kitob natijalarini yaxlitlash hamda kunlarda hisoblangan o'rtacha qiymatlarni oy va kun ko'rinishida ifodalash xususiyatlari sababli platforma va mazkur sharhdagi ayrim ko'rsatkichlar o'rtasida **0,1 ball yoki 1 kungacha texnik farqlar** kuzatilishi mumkin.

Mazkur texnik farqlar oliy ta'lim tashkilotlarining reytingdagi o'rni, natijalarning umumiy talqini va axborot-tahliliy sharhda keltirilgan asosiy xulosalarga ta'sir qilmaydi.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan platforma ma'lumotlari tegishli davlat axborot tizimlaridan kelib tushadigan ma'lumotlar asosida yangilanib borishi mumkin.

Muallif: Isroilov Ulug'bek

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori

Muallif: Mullayev Aziz

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot